

## BUGUNGI O‘ZBEK ADABIYOTIDA NABI JALOLIDDIN IJODI

**Safarboyeva Hilola Alisher qizi**

Urganch Davlat Universiteti

212-guruh(adabiyotshunoslik)magistranti

E-mail: [safarbayevahilola@gmail.com](mailto:safarbayevahilola@gmail.com)

**Annotatsiya:** Nabi Jaloliddinining adabiyotga kirib kelishi, hikoya va she’rlari mavzu ko‘lami, yangi asarlari.

**Kalit so‘zlar:** afg‘on urushi, “Tegirmon”, “Xayyom”, “O‘limning rangi”, “Endi kuz...” ,mastonal, tomchilar

### NABI JALOLIDDIN’S WORK IN TODAY UZBEK LITERATURA

**Abstract:** Nabi Jaloliddin’s entry into literature, stories and poems, subject, scope and new work

**Keywords:** afgan war, “Mill”, “Xayyom”, “The color death”, “Its’s autumn now”.., mastonas, drops

Yozuvchi , shoir va jurnalist ,afg‘on urushi qatnashchisi Nabi Jaloliddin adabiyotimizga 1993-yili “Yalpizli kecha” nomli she’riy to‘plami bilan kirib keldi.Asli andijonlik bo‘lgan Nabi Jalolov 1962-yil 2-mayda Izboskan tumanidagi Jonobod qishlog‘ida dunyoga kelgan.Ham otasi ham onasidan juda erta judo bo‘lgan adib ushbu ayriliq tufayli 9-o‘rta maktabdagi o‘qishini 1973-yildan To‘rtko‘l qishlog‘idagi rassomlik maktab-internatida o‘qishini davom ettirishga majbur bo‘ldi.Dastlabki she’rlarini ham ayni shu paytda yoza boshlaydi. Shu bilan bir qatorda rassomlik san’atini ham egallaydi.9-sinfda o‘qiyotganida tuman gazetasida ilk she’ri bosildi. 1980-yili maktab-internatni tamomlagan Nabi Jalolov dastlab ta’mlash

ustaxonasida oddiy ishchi bo‘lib ishladi. Oradan biroz vaqt o‘tgach harbiy xizmatga olinadi va 1981-1983-yillarda afg‘on urushida ishtirok etadi.

Nabi Jaloliddinlarning ijodiy kamolotida tashqi omil sifatida Ikkinchi jahon urushi va Afg‘on urushi ham muhim rol o‘ynaydi<sup>75</sup>

Urushdan qaytgach Tomsk Pedagogika institutiga o‘qishga kiradi, oilaviy sharoiti tufayli o‘qishni davom ettira olmaydi. Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida sirdan tahsil oldi (1987–1993). O‘rta maktabda dars berdi (1984–1991). Shundan so‘ng “Vatan”, “Xolis”, “Himoya” gazetalarida (1993–2006) turli vazifalarda ishlab keldi. 2006 yildan “Andijonnoma” gazetasida xizmat qiladi. 1993-yilda “Yalpizli kecha” nomli ilk she‘riy kitobi nashr etildi. 1996-yili “Sharq yulduzi” jurnalida “O‘limning rangi” nomli afg‘on urushi mavzusidagi qissasi bosildi. Shundan so‘ng uning “Hur nido”, “Sen bilan qolmayman”, “Ko‘ngil ozod” kabi she‘riy to‘plamlari, “Erkagi bor uy” nomli nasriy kitobi, “Oraliq” romani bosilib chiqdi.<sup>76</sup> Alber Kamyuning «Kaligula» asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bulardan tashqari yaqinda adibning buyuk o‘zbek shoiri va yozuvchisi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon haqidagi «Tegirmon» nomli romani nashr etildi. Asarda tariximiz va adabiyotimizda katta iz qoldirgan o‘nlab buyuk shaxslar ham o‘rin olgan. Qolaversa, o‘tgan asrning 20-30-yillaridagi fojealar aniq va ta’sirchan tarzda yoritilgan.

“Xayyom” romanini esa nafaqat adibning, ayni choqda o‘zbek milliy adabiyotining ham mustaqillik yillaridagi jiddiy muvaffaqiyatidir, desak, yanglishmaymiz.<sup>77</sup> Ushbu roman haqida yozuvchining o‘zi quyidagicha fikr bildirib o‘tadi:

“Xayyom hazratlari haqida yozishga uzoq tayyorgarlik ko‘rdim, uzoq vaqt material yig‘dim. Hal qiluvchi fursat kelishini kutdim. Romanda aytilganidek, inson umrida shunday bir lahza bo‘ladiki, uni payqay olgan kishi manguqlikni his etadi. Ana

1”.O‘zbek adiblari” .S. Mirvaliyev, R. Shokirova. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2016

<sup>77</sup> “Andijonnoma” gazetasi, 2012-yil 2-may sonidan olindi.

o‘sha hal qiluvchi on inson umrining mohiyatini tashkil qiladi. Bu mashq-romanimni “Katta she‘r” deb atagim keladi. Uni shu qadar ehtiros, ilg‘om va zavq bilan yozganman »<sup>78</sup>

Nabi Jaloliddinning 1981-1983 yillarda Afg‘onistonda bevosita janglarda ishtirok etishi uning ma‘naviy olami va ruhiyatiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ijodida Afg‘on urushi, umuman olganda, barcha shakldagi urushlarga nafrat tuyg‘usi sezilib turadi. Jumladan, “O‘limning rangi” qissasi, “Urush”, “Seni yaxshi ko‘raman, hayot”, “Ayriliq” kabi hikoyalarda janggohlardagi tahlikali hayot va uning asoratlari haqida so‘z boradiki, ular bevosita adibning shaxsiy hayotida yuz bergan voqealardir. 1990-yillardan keyin yaratilgan hikoyalarda qahramonlar sof milliy xarakterga ega obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Adib qadim milliy urf-odat, an‘analar asosida xalqni qayta tarbiyalashni, ma‘naviy qashshoqlikka qarshi kurashni maqsad qilib olganligi sezilib turadi. Adabiyotshunos I.G‘afurov ta‘biri bilan aytganda, bu davrda yozuvchilar “millatning o‘zagiga qaradilar. O‘zak sog‘lom ekanligini ko‘rdilar. Sog‘lom o‘zakni qudratli va yashovchan qilish uchun faqat va faqat tarbiya – milliy tuyg‘ular va milliy ongning maqsadga kuchli yo‘naltirilgan tarbiyasi zarurligini angladilar”. Nabi Jaloliddin hikoyalarda aynan ana shu o‘zakdan unib chiqqan o‘zbek oilasi, o‘zbek ota-onasi, o‘zbek farzandi, umuman olganda, o‘zbek millati qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi g‘oyalar ilgari surilgan. Nabi Jaloliddinning 2000-yillardan keyin yaratilgan hikoyalarda voqealar keskin, xarakterlar esa yanada yorqin aks etadi. Yozuvchining “Erkagi bor uy”, “Dayus”, “Og‘riq”, “Bayroq”, “Tuproq”, “Vokzal”, “Yurak” hikoyalari dramatismning kuchli ifodalanganligi, ideal qahramonlar xarakterida keskinlik ortganligi bilan ahamiyatlidir. Bu asarlarda milliy g‘urur, milliyong, vatanparvarlik, oriyat masalalari talqiniga alohida urg‘u berilgan. “Oftob isli bola”, “Seni yaxshi ko‘raman, hayot”, “Intiboh”, “Mustaqillik” kabi hikoyalarda esa falsafiylik bo‘rtib turadi.<sup>79</sup>

<sup>78</sup> O‘sha manba

<sup>79</sup> Qayumov Abduvahob Abdurashidovich “Hozirgi o‘zbek nasrida milliy xarakter va badiiy mahorat” avtoreferat

Nabi Jaloliddin she’riyati ham alohida tahlil va tahsinga loyiq. Yuqorida aytib o‘tilgan milliy g‘urur, milliy ong, vatanparvarlik, oriyat masalalarini aynan lirikasida ham kuzatish mumkin. 2014-yilda adibning “Endi kuz...” nomli she’riy kitobi nashr etiladi. Ushbu kitobda biz Nabi Jaloliddin she’riyatining rang-barangligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Kitobda ham xalqchilik, ham qishloq odamlariga xos soddalik, milliylik shu bilan birga falsafiylik, zamonaviylik va tasavvufiy ohangdagi she’rlar o‘rin olgan.

Ichsangu... Ichsangu bekalom bo‘lsang,  
Paymonasi to‘lgan mayli jom bo‘lsang.  
Dunyo o‘taversa boshu oyoqdin,  
Ko‘kni ham lol etgan bir Xayyom bo‘lsang.

\*\*\*

Maydin quy, kel, jonim, xayol bo‘lamiz,  
Bu dunyoga nechun malol bo‘lamiz?  
«Buning kayfi harom» — deganlar haqdir,  
Kayfimiz tarqagach, halol bo‘lamiz.<sup>80</sup>

Shunga o‘xshash to‘rtliklarni shoir “mastonalar” deb ataydi va bu mastonalarda Umar Xayyom ijodiga hamohanglik ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari kitobdan o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydigan “tomchilar” ham o‘rin olgan.

Qachon yasharkinman  
Men ham, Xudoyim,  
O‘zing bilan yop-yolg‘iz qolib?!<sup>81</sup>

<sup>80</sup> Nabi Jaloliddin. Endi kuz... She’rlar. Toshkent. «Adib» nashriyoti, 2014

<sup>81</sup> Nabi Jaloliddin. Endi kuz... She’rlar. Toshkent. «Adib» nashriyoti, 2014

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1 “O‘zbek adiblari” .S. Mirvaliyev, R. Shokirova. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2016.
- 2 Andijonnoma” gazetasi, 2012-yil 2-may soni
- 3 Qayumov Abdurahob Abdurashidovich “Hozirgi o‘zbek nasrida milliy xarakter va badiiy mahorat” (O‘tkir Hoshimov va Nabi Jaloliddin hikoyalari misolida) Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati.Farg‘ona- 2018
- 4 Nabi Jaloliddin. Endi kuz... She‘rlar. Toshkent. «Adib» nashriyoti, 2014
- 5 <https://nabijaloliddin.uz/>
- 6 <https://kh-davron.uz/>
- 7 <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/nabi-jaloliddin/>
- 8 <https://baxtiyor.uz/nabi-jaloliddin-haqida-ma-lumot/>
- 9 <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/nabi-jaloliddin-1962/>